

**YANGI O'ZBEKISTONDA INKLUYUVIZ TA'LIMDAGI HUQUQIY ASOSDA JAMOAT  
TASHKIOTLARINING O'RNI**

**Xasanova Mashxura Muxammadsidiqovna**

*Namangan Davlat Universiteti Pedagogika- psixologiya fakulteti*

*Ilmiy rahbar: Pedagogika –psixologiya fakulteti Ta'lismenejmenti kafedrasid  
o'qituvchisi Defektologiya (logopediya)*

**Otaxonova Mohinur Nosirxon qizi**

*yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning O'zbekistondagi huquqiy asoslari, unda jamoat tashkilotlarining o'rni, "Ta'lismamma uchun" Milliy dasturi rejasi, "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lism to'g'risida muvaqqat Nizom"i to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lism, integratsiyalashgan ta'lism, uzlucksiz ta'lism, imkoniyati cheklangan bolalar.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются правовые основы инклюзивного образования в Узбекистане, роль в нем общественных организаций, план Национальной программы «Образование для всех», инклюзивное образование для детей и подростков с ограниченными возможностями здоровья.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, интегрированное образование, непрерывное образование, дети с ограниченными возможностями здоровья.

**Annotation:** This article discusses the legal basis of inclusive education in Uzbekistan, the role of public organizations in it, the plan of the National Program "Education for All", inclusive education for children and adolescents with disabilities. Information about the temporary regulation is provided.

**Key words:** Inclusive education, integrated education, continuous education, children with disabilities.

O'zbekistonda inklyuziv ta'larning huquqiy asoslari:

- "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonun(1991-yil)
- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi (1992-yil)
- "Ta'lism to'g'risida"gi qonun (1997-yil)
- "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi " (1997-yil)
- "Ta'lismamma uchun" Milliy dasturi rejasi (2003-yil)
- "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lism to'g'risida muvaqqat nizom"i (2005-yil)
- "Ijtimoiy himoya yili" Davlat dasturi (2007-yil)
- "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni (2008-yil)

Yuqorida keltirilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limning joriy etilishi uchun asos bo'lib hisoblanadi.Jumladan: "Ta'lism hamma uchun" dasturining bajarilishi,O'zbekistonda ta'lism olish huquqining qonunchilik asosini bajarilishi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992-yil; 41-modda)
- "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida"gi qonun (19,27-moddalar)
  - "Ta'lism to'g'risida"gi qonun (1997-yil; 22,23-moddalar)
  - "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun (2008-yil; ta'lism olishdagi teng imkoniyatlar va alohida kafolatlari, 28, 29-moddalar)
  - Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (o'quvchilarni qobiliyat va imkoniyatlariga muvofiq o'qitishga differension yondashuv)
  - "Ijtimoiy himoya yili" davlat dasturi (4.2-modda)
  - "Sog'lom avlod" davlat dasturi (2000-yil)
  - "Barkamol avlod yili" davlat dasturi(2010-yil) va boshqalar.

Inklyuziv ta'limning barqarorligini ta'minlash maqsadida "Ta'lism to'g'risida"gi qonunning yangi tahririga Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim jarayoniga integratsiyalash maqsadida umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lism muassasalarida inklyuziv guruh va sinflarning tashkil qilinishini tartibga soluvchi modda kiritilgan.

O'zbekistonda integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lismni rivojlantirish bo'yicha siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lismni imkoniyatlari cheklangan bolalarning barqaror rivojlanishi,reabilitatsiyasi, jamiyatda moslashuvchi va integratsiyasining muhim omili sifatida tan olinishi;
  - Integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lismni saqlab qolish va rivojlantirish maqsadida barcha strategik kuchlar, davlat va nodavlat tuzilmalar, keng jamoatchilikning jipslashishi;
  - Integratsiyalashgan (inklyuziv)ta'lismning hamma uchun ochiqligi, ta'lism tizimining o'quvchilarni rivojlanish salohiyatlari,o'ziga hos xususiyatlari hamda ta'lism ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashuvi;
  - Imkoniyatlari cheklangan bolalarni umumiyligi ta'limga integratsiyalash maqsadida ta'lism muassasalari, ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlarining faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirush mexanizmlarini yaratish;
  - Integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lism muassasalari uchun maxsus o'quv rejali, o'quv-uslubiy komplekslar ishlab chiqish;
  - O'quvchilarda tevarak-atrofdagilar,tengdoshlari bilan o'zaro ijobiy munosabatlarning o'rnatilishi, atrofdagi kishilarda bag'rikenglikni rivojlantirish;
- Imkoniyatlari cheklangan bolalarni ularning ehtiyojlarini va imkoniyatlariga qaratilgan sifatli ta'lism olishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.

O'zbekistonning integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lif sohasidagi siyosati yosh fuqarolarning ta'lif olishlari uchun optimal sharoitlar yaratilishiga qaratiladi va quyidagi maqsadlarni bajarilishiga yo'naltiriladi:

- Bolaning o'ziga xos ta'limga ehtiyojlarini mumkin qadar erta(hayotining dastlabki oyларидан) aniqlash;
- O'ziga xos ta'lif ehtiyojlari mavjud bolalarning barchasini ta'limga jalb etish;
- Imkoniyatlari cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari qatoriga integratsiyalash uchun sharoitlar yaratish;
- Imkoniyatlari cheklangan shaxslarning o'ziga xos ta'lif ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- Inklyuziv ta'lif muhitida ishlayotgan pedagoglarga malakali uslubiy yordam ko'rsatish va ragbatlantirish;
- Uyg'un rivojlangan avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatini ta'lif vositalari yordamida qo'llab-quvvatlash.

Mazkur maqsadlarga erishish,quyidagi vazifalar majmuasining amalga oshirilishini taqozo etadi:

- Imkoniyatlari cheklangan bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqib,maxsus integratsiyalashgan(inklyuziv) ta'lif mazmunini ilmiy-uslubiy jihatdan ishlab chiqish;
- Maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lifni uning barcha pog'onalarida tashkil etish, boshqarish va muvofiqlashtirish prinsiplari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- Maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lifning huquqiy asoslarini takomillashtirish, uning me'yoriy huquqiy jihatdan ta'minotini ta'lif siyosatini maqsad va vazifalariga moslashtirish;
- Bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sifatli ta'lif olishida teng imkoniyatlarga ega bo'lishining davlat tomonidan kafolatining amalga oshirilishini ta'minlaydigan tashkiliy boshqaruв mexanizmlarini yaratish;
- Maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lif muammolarini ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy nuqtai nazardan ishlab chiqilishini ta'minlaydigan ilmiy-pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorlarligi va malakasini oshirish;
- Maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lif muassasalari uchun pedagogik kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish ishlarini takomillashtirish;
- O'zbekistonning bu faoliyatga davlat, jamoatchilik tashkilotlari,ota-onalarni keng jalb qilishga qaratilgan ta'lif siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning davlat-jamoatchilik mexanizmlarini rivojlantirish;
- Mintaqalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lif holati va rivojlanish tendensiyalarni monitoring qilish tizimini yaratish;
- Integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lif sohasida o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, jamoat tashkilotlari xodimlari uchun o'quv metodik majmular va ommabop adabiyotlarni yaratish.

2002-yilning 31-may kuni "Ta'lim hamma uchun Dakar Deklaratsiyasi"ning mohiyatini O'zbekistonda tadbiq etish yuzasidan Xalq Ta'limi Vazirligi, YUNESKO xalqaro tashkiloti bilan hamkorlikda "Ta'lim hamma uchun" mavzusida xalqaro forum tashkil etildi. Forumda xalqaro YUNESKO tashkilotining eksperti janob Kotibxon ishtirok etib, forum qatnashchilariga "Ta'lim hamma uchun" Milliy dastur rejasini ishlab chiqish mavzusida seminar tashkil etdi.

Natijada 2003-yil "Ta'lim hamma uchun" dasturining Milliy rejasini ishlab chiqildi. "Ta'lim hamma uchun" dasturining Milliy rejasini 2000-yilgi Dakar shartnomalari doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, siyosatchilar, ta'lim tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo'ljallangan. "Ta'lim hamma uchun" Milliy harakat rejasini ro'yobga chiqarish bo'yicha 2001-2015-yillarga mo'ljallangan tadbirlar belgilanib, Ta'lim hamma uchun milliy harakati hamda umumiy o'rta ta'lim maqsad va vazifalarini ro'yobga chiqarish siyosati" deb nom olgan VI bandining IX yo'nalishi Maxsus ta'limga yo'naltirilgan bo'lib, unda maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etishda qonunchilik va me'yoriy bazani takomillashtirish, mакtabgacha va boshlang'ich ta'lim-tarbiya, maxsus ta'lim mazmunini, inklyuziv ta'lim jarayonining o'quv-uslubiy tomonini takomillashtirish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, inklyuziv ta'limning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, inklyuziv ta'limni joriy etishda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish va boshqa masalalar qayd etilgan.

2005-yilning 19-sentabr kuni Xalq Ta'limi Vazirligining 234-sonli buyrug'i bilan "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom"i tasdiqlandi. Ushbu Nizomda inklyuziv ta'lim tizimining maqsad, vazifalari belgilab berilgan. Unda qayd etilishicha, imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar quyidagi tartibda inklyuziv ta'limga qamrab olinadi:

- ruhiy rivojlanishi sustlashgsn bolalar;
- harakat muvozanati buzilgan;
- o'z-o'ziga xizmat qila oladigan debillik darajasidagi oligofren bolalar va o'smirlar;
- nutqida nuqsoni bo'lgan (muloqoti cheklanmaydigan darajadagi) bolalar;
- zaif ko'ruvchi bolalar va o'smirlar;
- zaif eshituvchi va kech (5 yoshdan keyin) kar bo'lgan bolalar;
- ko'zi ojiz(Brayl yozuvi va o'qishni egallagan) bolalar va o'smirlar;
- kar (muloqot darajasida nutqi bo'lgan, o'qish va yozishni egallagan) bolalar va o'smirlar.

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim olishini yanada takomillashtirish, amaliyatda uchraydigan muammolarning yechimlarini davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida hal qilish masalalari yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- korreksion ta'lim strukturasini sifat jihatdan yangilash;
- Respublikaning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich to'liq integratsiyasiga amal qilish;

-davlat normative hujjatlariga inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha qo'shimchalar kiritish yoki tadbirlar ishlab chiqish va tasdiqlash;

-binoni ularga mos ravishda rekonstruksiya qilish;

--umumta'lism tizimida ta'lim olayotgan maxsus ehtiyojli bolalar uchun zaruriy moddiy texnik ba'zani yaratish;

-inklyuziv ta'limni tashabbuskorliq mehr-muruvvat tarzida tashkil etish;

-maktabning ish faoliyatiga inklyuziv ta'limni amalga oshirish borasida o'zgarishlar kiritish;

-umumta'lism muassasa pedagoglarini inklyuziv ta'lim bo'yicha qayta tayyorlash;

-barcha pedagogika oliygochlarda va o'rta maxsus o'quv yurtlarida korreksion pedagogik kurslarni kiritilishi;

- korreksion Davlat ta'lim talablari va dasturlarni imkoniyati cheklangan bolaning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirishirilgan, ishlab chiqish;
- umumta'lism, maxsus maktab pedagoglari, ota-onalar uchun o'quv metodik va ilmiy ommabop, ixcham turdag'i o'quv adabiyotlar va individual dasturlar yaratish;
- nogiron bolani ilk yoshidan tashxis qilish va korreksion pedagogik yordam berish;
- imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lism tizimida umumiylar va korreksion ta'lim olishini ilmiy asoslari, standart talablar, o'quv metodik majmualarni yaratish va ta'minlash;
- kasb-hunarga o'rgatish, reabilitasiya qilish va bu ishda oilani bevosita ishtirokini ta'minlash kabi bir qator dolzarb masalalarni kelajakda keng qamrovli bajarish uchun davlat tasarrufida muvofiqlashtiruvchi ilmiy-pedagogik resurs markazi, boshqarma, ilmiy labaratoriylar tashkil qilish kabi tashkiliy, ilmiy-uslubiy, amaliy ishlarni bajarish inklyuziv ta'limni joriy qilish muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Inklyuziv ta'lim – bu imkoniyati cheklangan bolalarni barcha zaruriy vositalar bilan ko'pchilik bolalar uchun amalga oshiriluvchi ta'lim tadbirlariga jalb etishdir. Shundagina imkoniyati cheklangan barcha bolalar jamiyat hayotida faol ishtirok etishga erishishlari mumkin. Rivojlangan xorijiy davlatlarda 1970-80 yillardan boshlab maxsus yordamga muhtoj bolalar barcha qatori umumta'lism muassasalarida va teng sharoitda ta'lim olishi, jamiyat ishlardan faol ishtirok etishi kabi bir qator ishlarni amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda nogironlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim berish, tarbiyalash, kasbga yo'naltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlash kabi bir qator qonun va qarorlar, o'quv metodik adabiyotlar, ilg'or ish tajribalari nafaqat xalqaro miqyosda, balki O'zbekistonda ham targ'ibot qilinmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. R. Sh. Shomaxmudova. "Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari". Toshkent-2007.
2. A.A.Xusanov."Inklyuziv ta'lim " fanidan O'quv-uslubiy majmua. NamDu-2020.
3. uz.denemetr.com